



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING
BUYRUG‘I**

**Nufuzli xalqaro olimpiadalarda ishtirok etuvchi
O‘zbekiston terma jamoasiga nomzodlarni saralashning III bosqichi hamda
Xalqaro iqtisod olimpiadasiga saralashning Respublika bosqichini
tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 3-maydagi PQ-4306-son hamda Vazirlar Mahkamasining “Iqtidorli o‘quvchilar o‘rtasida fan olimpiadalarini o‘tkazish tizimini takomillashtirish hamda xorijiy tillarni o‘qitish bo‘yicha eng yaxshi maktabni aniqlash tizimini joriy etish to‘g‘risida” 2021-yil 9-sentabrdagi 562-son qarorlarida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash maqsadida **buyuraman:**

1. Toshkent viloyati xalq ta‘limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazida **matematika fanidan 5-, 6-, 8-, 9-aprel** kunlari, **fizika fanidan 8-9-aprel** kunlari, **kimyo fanidan 15-16-aprel** kunlari, **biologiya, informatika va axborot texnologiyalari fanlaridan 29-30-aprel** kunlari nufuzli xalqaro olimpiadalarda ishtirok etuvchi O‘zbekiston terma jamoasiga nomzodlarni saralashning III bosqichi (keyingi o‘rinlarda - saralash olimpiadasi) hamda **iqtisod fanidan 29-30-aprel** kunlari Xalqaro iqtisod olimpiadasiga saralashning Respublika bosqichi o‘tkazilsin.

2. Quyidagilar:

nufuzli xalqaro olimpiadalarda ishtirok etuvchi O‘zbekiston terma jamoasiga nomzodlarni saralashning III bosqichini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risida yo‘riqnoma 1-ilovaga muvofiq;

xalqaro iqtisod olimpiadasiga saralashning Respublika bosqichini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risida yo‘riqnoma 2-ilovaga muvofiq

nufuzli xalqaro olimpiadalarda ishtirok etuvchi O'zbekiston terma jamoasiga nomzodlarni saralashning III bosqichi ishtirokchilari ro'yxati 3-ilovaga muvofiq;

xalqaro olimpiadalarga saralash bosqichlari hamda kuchaytirilgan o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha xarajatlar smetasi 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Fan olimpiadalarini o'tkazish va iqtidorli o'quvchilarni saralash boshqarmasi boshlig'i (U.Raxmonov)ga:

xalqaro fan olimpiadalari talablari asosida yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilgan holda saralash olimpiadasi uchun nazorat materiallarini ishlab chiqish;

saralash olimpiadasini o'tkazish uchun hakamlar hay'ati tarkibini shakllantirish;

saralash olimpiadasining yo'riqnomasiga qat'iy amal qilgan holda adolatli va shaffof o'tkazilishini ta'minlash vazifalari yuklatilsin.

4. A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti (A.Radjiyev) saralash olimpiadasi ishtirokchilarini yotoqxonada bilan ta'minlash hamda yotoqxonada sanitariya-gigiyena qoidalariga qat'iy amal qilish choralari ko'rsin.

5. Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalariga:

3-ilovada ko'rsatilgan saralash olimpiadasi ishtirokchilarini olimpiadada ishtirok etishlari uchun bir nafardan jamoa rahbarini biriktirgan holda Toshkent shahriga kelib-ketishlarida yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash choralari ko'rish;

jamoa rahbarlarining xizmat safari bilan bog'liq xarajatlarini xodimning asosiy ish joyidan to'lanishini ta'minlash vazifalari yuklatilsin.

6. Mazkur buyruqning 4-ilovasiga muvofiq tasdiqlangan sarf-xarajatlar vazirlikning 2023-yil uchun markazlashgan tadbirlarning xarajatlar smetasi mablag'lari doirasida amalga oshirilsin.

7. Davlat xaridlari bo'limi (Sh.Yeshnazarov) xalqaro olimpiadalarga saralash bosqichlari hamda kuchaytirilgan o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish va uni o'tkazish bilan bog'liq xaridlarni amalga oshirsin.

8. Buxgalteriya hisobi va hisoboti boshqarmasi (F.Jamuratova) xalqaro olimpiadalarga saralash bosqichlari hamda kuchaytirilgan o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq sarf-xarajatlarni tuzilgan shartnomalarga muvofiq o'rnatilgan tartibda amalga oshirsin.

9. Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan ishlash boshqarmasi (D.Sobirova) saralash olimpiadasi jarayonlarini ommaviy axborot vositalarida keng yoritish va vazirlikning veb-saytiga joylashtirish choralarini ko'rsin.

10. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o'rinbosari U.Sharifxodjayev zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



X.Umarova

Toshkent sh.,
2023-yil “ **28** ” - **mart** ,
69 - son